

UNUTMOGʻILKI TO HAJR ETTI...

1. *Unutmogʻilki to hajr etti bedod,
Meni bir noma birla qilmading yod.*
2. *Koʻngul yod etmasingdin boʻlsa gʻamgin,
Vale ruhum erur yoding bila shod.*
3. *Buzugʻ jismim uyin yiqti firoqing,
Bu uyda koʻp buzugʻlugʻ qildi bunyod.*
4. *Qul oʻldi sarv to gulgash etarga
Qading bazmi tarabdin koʻpti ozod.*
5. *Meni gah dashtu gah togʻ uzra koʻrgan
Tirilmish sogʻinur Majnun Farhod.*
6. *Koʻngulni may bila maʼmur qilkim,
Xumori davr ani qoʻymas obod.*
7. *Navoiy telba boʻlgʻan chogʻda koʻrdi,
Pariy birla ani sogʻindi hamzod.*

(“Gʻaroyib us-sigʻar”, 126-gʻazal)

Lugʻat:

Bedod – jabr sitam, zulm
Gulgash – gul sayri, gul sayli
Tarab – xursandlik, shodlik, ayshu
 ishrat
Qoʻpmoq – oʻrnidan turmoq, tik
 turmoq

Sogʻinmoq – bu oʻrinda: hisoblamoq,
 oʻylamoq, gumon qilmoq
Maʼmur – obod, xursand
Davr – davra, ulfatlar davrasi
Hamzod – tugʻishgan, qarindosh
Gʻazalning nasriy bayoni

1. 1- va 2-baytlar haqida to'g'ri mulohazani toping.

A) Birinchi baytda oshiq yorning maktubi(nomasi) kelishi bilan o'ziga hijron azob bermay qo'yganini ta'kidlamogda.

B) Har ikki baytda ham MUBOLAG'A san'ati qo'llangan.

C) Oshiq birinchi baytdagi e'tirozini ikkinchi baytda biroz yumshatishga va ruhi har qanday vaziyatda ham yordan minnatdor ekaniga ishora qilmoqda.

D) Ikkinchi baytda RUJU' san'ati qo'llangan.

2. G'azalda qaysi o'xshatish mavjud emas?

A) Oshiq jismi buzilgan uyga qiyoslangan.

B) Navoiy o'zini aqli past bir insonga qiyoslaydi.

C) Oshiq xayoli doim xurram yuradigan insonga qiyoslangan.

D) Yor pariylardan deya ta'kidlanadi.

3. 4-baytda quyidagi qaysi badiiy san'at(lar) mavjud emas?

1) *Tashxis* (arab. — shaxslantirish) — jonlantirish badiiy san'atining bir turi; turli narsalar, hayvonlar, qushlar, o'simliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlarni ko'chirish san'ati.

2) *Tashbih* (ar. — o'xshatish) — bir narsani ikkinchi bir narsaga haqiqiy

yoki majoziy munosabatlarga ko'ra "o'xshatish" san'ati.

3) *Tanosib* (ar. — mos, mutanosib, dardor) — baytda ma'no jihatdan bir-biriga yaqin va o'zaro mutanosib so'zlarni qo'llashga asoslangan badiiy san'at.

4) *Tasdir* (sadrning ajuzda takrorlanishi) — baytning boshida kelgan so'z baytning oxirida ham takrorlanib kelish san'ati.

A) 2,4

B) 1,3

C) faqat 3

D) faqat 4

4. G'azal qaysi vaznda yozilganini aniqlang.

A) *Mutaqoribi musammani solim*

B) *Ramali musaddasi maqsur*

C) *Rajazi muxammasi mahzuf*

D) *Hazaji musaddasi mahzuf*

5. Maqta' mazmuni to'g'ri izohlangan qatorni belgilang.

A) Navoiy telba holatida bildiki, ham pariyni, ham yorni teng sog'inmoqda.

B) Telba holatdagi Navoiy yorni ko'rdi-yu, yor, menimcha, pariyning tug'ishgani bo'lsa kerak deb o'yladi.

C) Navoiy yorni pariylar bilib, uni har on sog'inib, telba bo'lganini bildi.

D) Navoiy pariylarni telba bo'lgan holini ko'rdi va yorim bulardan go'zal ekan-da deb o'yladi.